

XUSUSIY KAPITAL TARKIBI, O'ZGARISHI VA DINAMIKASI TAHLILI

*Xoliqulov Anvar Nematovich – SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrasini mudiri,  
i.f.n., professor*

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida analitik ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni qanday tashkil etilganligiga va rejalashtirishga bog'liq. Odatda, analitik ishlarda nafaqat korxonani boshqaruv tarkibi, balki boshqaruvning funksional organlari, jamoatchilik a'zolari hamda mehnat jamoasigacha qatnashishi mumkin bo'ladi. Bizning fikrimizcha, xo'jalik subyektlarining xususiy kapitalini o'rganishda iqtisodiy tahlilni quyidagi bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

***“ Xususiy kapital tahlilini o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish bosqichi.*** Iqtisodiy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish tahlilni tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda xo'jalik subyektlarining xususiy kapitalini iqtisodiy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil o'tkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari iqtisodiy tahlil o'tkazish dasturida quyidagilar aniq ko'rsatilgan va belgilanib olingan bo'lishi

lozim:

- xususiy kapital tahlilining maqsadi va vazifasini aniqlash;
- tahlil obyekti aniqlash;
- iqtisodiy tahlil ishlarini olib borish joyi;
- tahlil mazmunini izohlash;
- ijrochilar tarkibi va ularning vazifalarini belgilash;
- tahlil o'tkazish muddatini belgilab olish;
- xususiy kapital tahlili manbalari va ularning natijalarini rasmiylashtirish tartibini aniqlab olish.

***Xususiy kapital tahlili uchun kerakli bo'lgan manbalarni aniqlash, yig'ish hamda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilash bosqichi.*** Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- xususiy kapital tahlili uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash;
- xususiy kapitalga oid manbalarni to'plash;
- qo'shimcha ma'lumotlarni jalb etish.

***Xususiy kapitalga oid to'plangan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va tahlil uchun moslashtirish bosqichi.***

To'plangan manbalarni to'g'riligini tekshirish hamda ishonchligini aniqlashdan

iborat bo'ldi va ushbu manbalar tahlil uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda quyidagilar aniqlanib olinadi:

- tahlil usullarini aniqlab olish;
- ma'lumotlarni soddalashtirish;
- jadval, sxema va maketlarni tuzish;
- ta'sir etuvchi faktorlarni aniqlash;
- rezervlarni aniqlash.

***Bevosita xo'jalik subyektlarining barcha sohalarini belgilangan tartibda tahlil qilib chiqish bosqichi.*** Bu eng muhim bosqich bo'lib, bevosita tahlil ishlari bajariladi, ko'rsatkichlar hisoblanadi, o'zgarish sabablari va farqlar aniqlanadi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mezon ko'rsatkichlarini aniqlash;
- ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish hamda natijalarni baholash;
- baholashda ekspertizadan foydalanish;
- natijalarni umumlashtiruvchi mezonlar;
- tahlil natijalarini xulosaga tayyorlash.

***Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi.*** Bu bosqichda o'rganilayotgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi va ma'lum bir o'zgarishlarga baho beriladi hamda tahlilga yakun yasaladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda ham quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim bo'ldi:

- korxonalar faoliyati natijalarining o'zgarish sabablarini aniqlash;
- korxonalar faoliyatini yaxshilash rezervlarini jamlash;
- aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlarini belgilash;
- tahlil natijalarini hisoblash va hisobotda ifodalash.

***Tahlil natijasida ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotda qo'llash shart-sharoitlarini ko'rsatib berish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bosqichi.***

Mazkur bosqichda tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlarni korxonalar faoliyatiga qo'llash yo'llari ko'rsatilib, tavsiyalar beriladi, aniqlangan ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotga tatbiq etishni ko'rsatib beradi va ularning haqiqatda kelgusida bajarilishi nazorat qilib boriladi. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar o'z moliyaviy resurslarini mustaqil shakllantirishlari mumkin. Korxonalar moliyaviy resurslarining asosiy manbalari bo'lib foyda, amortizatsiya ajratmalari, qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan mablag'lar, aksionerlar, yuridik va jismoniy

shaxslarning pay va boshqa badallari, shuningdek, kreditlar va qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa tushumlar hisoblanadi. Korxonaning o'z mablag'larini shakllantirish asosiy manbai bo'lib uning mulkdorlari tomonidan korxonaga qo'yilgan mablag'lar

majmui bo'lgan ustav kapitali hisoblanadi. Ustav kapitalini shakllantirish tartibi qonunchilik va ta'sis hujjatlari bilan amalga oshiriladi. Chunonchi, davlat korxonalarining ustav fondi korxonaga foydalanishga topshirilgan vaqtida o'z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat tomonidan (budget hisobidan) ajratilgan mablag'lar (qurilish, montaj, sozlash ishlari xarajatlari, asbob-uskunalar, aylanma mablag'lar va pul mablag'lari qiymati) ni aks ettiradi. Nodavlat tijorat strukturalarining ustav kapitali aksionerlar (ta'sischilar) tomonidan qo'yilgan (pul, moddiy va boshqa) mablag'lar hisobidan shakllantiriladi va shuning uchun ham bir necha yuridik va jismoniy shaxslar – aksionerlar jamiyatini, shirkat va boshqa tashkiliyhuquqiy shakldagi jamoat mulkini tashkil etadi.

Kapital hisobi o'z ichiga bir qancha ko'rsatkichlarni olib, ular quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- Ustav kapitali.
- Qo'shilgan kapital.
- Rezerv kapitali.
- Taqsimlanmagan foyda.
- Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Korxonaning ustav kapitali o'z mablag'lari manbayining asosini tashkil etadi. Ustav kapitali ta'sischilar tomonidan qo'yilgan pay to'lovlarini, aksiyalarining nominal qiymatini o'zida saqlaydi. Uning hisobi esa hukumat qarorlari va ta'sischilarning yig'inida qabul qilingan qarorlar asosida yuritilib boriladi.

Davlat tashkilotlarida ustav kapitali davlat budgeti tomonidan ajratilgan mulkni ko'rsatadi. Mulkning kelishi vaqtiga esa bu summa ustav kapitalida ko'rsatiladi.

Korxonalar amalda qo'llanilayotgan qonunlarga ko'ra har yili erishgan foydasidan rezervlar tashkil etishlari mumkin. Unga har yili ustavda ko'rsatilgan tartibda mablag' chegirilib boriladi.

### ***Tashkil etilgan fond esa quyidagi maqsadlar uchun sarflanadi:***

1. Ko'rilgan zararlarni qoplash uchun.
2. Korxonaga hisobot yilida foyda olmagan bo'lsa, imtiyozli aksiyalar uchun dividend berish.
3. Boshqa to'lovlarni amalga oshirish uchun.

Taqsimlanmagan foyda – bu korxonaning hisobida turgan sof foydasini ko'rsatadi. U ham xususiy kapital tarkibiga kiruvchi eng asosiy ko'rsatkichlardan sanaladi. Lekin faoliyat yurituvchi korxonalar har safar ham foyda bilan chiqmasligi mumkin. Bu holda uning zarari xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar deb yuritiladi. Mazkur ikkala qiymat ham 8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» hamda 8720-«Jamg'arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schotlarida yuritilib, ularning farqi ishoralar

orqali aniqlanib olinadi. Moliyaviy tahlilni olib borishda koeffitsiyentlar usuli eng ilg'or metodlardan hisoblanib, bizning o'rganayotgan mavzuimizni ham ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

*Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida turli xil moliyaviy koeffitsiyentlar o'rganiladi va ularni shartli ravishda to'rtta katta guruhlarga ajratiladi:*

1. Rentabellik koeffitsiyentlari.
2. Likvidlik koeffitsiyentlari.
3. To'lov qobiliyati koeffitsiyentlari.
4. Bozor indikatorlari.

Bu ko'rsatkichlar ham o'z tarkibiga bir qancha koeffitsiyentlarni oladi:

**Demak, birinchi ko'rsatkich tarkibiga:**

- Ø Xususiy kapital rentabelligi.
- Ø Korxonaning jami investitsiyalar rentabelligi.
- Ø Leveridj.
- Ø Sotish rentabelligi.

**Likvidlilik koeffitsiyentlariga:**

- a) tez likvidlanadigan koeffitsiyentlar
- b) debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti;
- d) ishlab chiqarish zaxiralarini aylanishi koeffitsiyenti;
- e) qiyin likvidlanish koeffitsiyenti.

**To'lov qobiliyatini izohlovchi koeffitsiyentlarga quyidagilar kiradi:**

- qarz va hususiy kapital nisbati koeffitsiyenti;
- xususiy kapitalning jami mulkda tutgan ulushi koeffitsiyenti;
- qarz mablag'larining jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsiyenti.

Bozor indikatorlariga esa bozor qiymati va buxgalteriya hisobida aks etgan baho (nominal qiymat, tannarx) orasidagi farq summolari o'rganiladi. Bu koeffitsiyentlar ichida bizning mavzuga taalluqli bo'lgan koeffitsiyentlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

**Xususiy kapital rentabelligi.** Bu rentabellik turi har bir so'mlik xususiy kapitalimiz hisobiga to'g'ri kelgan sof foyda qiymati o'rganiladi. Buning uchun,

Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatini topish uchun yil boshidagi va yil oxiridagi summalarini yig'indisini ikkiga bo'lib aniqlaymiz.

**Jami investitsiyalar rentabelligi.** Bu ko'rsatkichni aniqlashimiz uchun aktivlarning o'rtacha qiymati jami mablag'larning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qiymati yig'indisini ikkiga bo'lgan holda topamiz. Bu yerda rezervlar uchun ajratma, kredit uchun soliqlar va

foyda solig'ining korrekcirovkasi sof foyda hisobidan bo'lganligi uchun bu qiymatlarning yig'indisi hisobot yilining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida keladi.

**Leveridj.** Bu xususiy kapitalning o'sgan qismini ko'rsatib, u quyidagicha aniqlanadi, ya'ni xususiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsiyenti olinadi. Kelib chiqqan natija qanchalik yuqori bo'lsa, korxonaning xususiy kapitali shunchalik o'sganligini beradi.

**Bir aksiya uchun daromadni** hisobot yilida olingan foydani chiqarilgan aksiyalar soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

**Qarz va xususiy kapital o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti.**

Bunda uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'larini o'z mablag'lari manbayiga bo'lib topamiz. Bunday nisbatlar har bir davr uchun aniqlanadi.

Agarda hisobot yili boshidagi aniqlangan koeffitsiyent yil oxiriga nisbatan katta bo'lsa  $A1 > A2$  u holda korxonaning to'lov qobiliyati oshgan bo'ladi. Aks holda esa korxonaning to'lov qobiliyati pasaygan bo'ladi.

Bu koeffitsiyent qanchalik birga yaqinlashib borsa korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi. Bizning respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar bu koeffitsiyentning kamida 50% ga ega bo'lishlari lozim. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shakliga asoslanib yil boshiga nisbatan yil oxirida qolgan kapitalimizning o'zgarishini tahlil qilamiz.

Shunday ekan, yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asoslangan holda bu muammoni hal etish yo'llarini topishimiz kerak. Ko'rinib turibdiki, xususiy kapital qiymatini ko'paytirishning eng asosiy omili bo'lib, korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi hisoblanadi. Faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar shu omil hisobiga o'z jamg'armalarini oshirishi eng optimal variant deb qaraladi. Chunki, bu omilning o'zgarishi faqatgina korxonaning o'ziga bog'liq bo'lib, uning har tomonlama to'liq

imkoniyatlarini ishga solib faoliyatini boshlashni taqozo etadi. Bundan tashqari boshqa ko'rsatkichlarning o'zgarishi ham ushbu omil bilan bevosita bog'liq. Mazkur vazifalarni hal etishda talabalar «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom»ni chuqur bilishlari, unda foydani shakllantirish muammolarini chuqur o'rganishlari lozim

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «O'zbekiston — 2030»

- strategiyasi to'g'risida. –Toshkent. 12.09.2023 yil.
2. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: O'zbekiston, 2022. -104 b.
  3. Pardayev M.Q., Xoliqulov A.N. Iqtisodiyot sub'ektlarida omilli tahlilni takomillashtirish. Monografiya. Navro'z. – Toshkent. 2014, 236-bet
  4. Xoliqulov A.N., Usmanova D.Q., Raximov X.A. Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash. O'quv qo'llanma. Samarqand.: "Turon nashr" nashriyoti, 2021. – 212-bet.
  5. Xoliqulov A.N., Berdiqulov V., Ibodov K.M. Taqqoslama menejment. O'quv-qo'llanma, T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2021 yil – 162 bet
  6. Xoliqulov A.N., Urazov S.SH. Biznes hujjatlarni tuzish. O'quv-qo'llanma, Samarqand: Fan bulog'i nashriyoti, 2022 yil – 150 bet
  7. Xoliqulov A.N. Iqtisodiy tahlil va audit. O'quv qo'llanma Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2023, 209 bet
  8. Xoliqulov A.N. Turistik korxonalar faoliyati tahlili. O'quv qo'llanma Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti, 2024, 314 bet.
  9. Xoliqulov A.N., Ibodov K.B. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. Darslik, Samarqand.: Fan bulog'i nashriyoti uyi, 2024, 360 bet
  10. Xoliqulov A.N. Xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 276 bet